

XALQARO TADQIQOTLAR DOIRASIDA TALIM SIFATINI BAXOLASH

Anorboyev Zulfiqor Baxodir o'g'li

*Abdulla qodiriy nomidagi Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti 2-bosqich
magistranti, anorboyevzulfiqor7@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston talim tizimida Xalqaro baxolash dasturlarining ahamiyati, TIMSS va PISA haqida malumotlar va xalqaro baxolash dasturlarida ishtirok etishning asosiy maqsadlari, talim sifatini oshirishga qaratilgan ishlar ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *TIMSS, PISA, PIRLS, Xalqaro dastur, PIRLS, tadqiqot, konsepsiya*

Аннотация: *В этой статье представлена информация о важности международных программ оценки в системе образования Узбекистана, информация о TIMSS и PISA и основных целях участия в международных программах оценки, работах, направленных на повышение качества образования.*

Ключевые тексты: *TIMSS, PISA, PIRLS, Международная программа, PIRLS, Research, Concept*

Annotation: *This article presents information on the importance of International Assessment Programs in the education system of Uzbekistan, information on TIMSS and PISA and the main goals of participation in international assessment programs, work aimed at improving the quality of education.*

Keywords: *TIMSS, PISA, PIRLS, International Program, PIRLS, Research, Concept*

Dunyoda yuzdan ortiq davlat o'z mamlakatida joriy etilgan ta'lim sifatini xolisona baholash maqsadida PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS, EGRA hamda EGMA kabi xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etadi. Jumladan, O'zbekiston ham PISA va boshqa xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan edi.

Shunga ko'ra, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar o'rnatilgan. Tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda xalqaro tadqiqotlarni joriy qilishga tayyorgarlik ko'rish ishlari olib borilayapti.

"Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da PISA o'quvchilarni baholash xalqaro dasturi reytingida O'zbekistonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlar qatoriga kirishi ko'zda tutilgan. Bu bo'yicha barcha amaliy ishlar qilinmoqda.

Mamlakatimizda berilayotgan ta'lim sifatiga xalqaro doiradagi ekspertlarning bahosi juda muhim.

Sababi, hech qaysi mamlakat o'z ta'lim tizimiga xolis baho bera olmaydi.

PISA tadqiqotlari esa dunyoning yuzdan ortiq mamlakatida standartlashtirilgan testlar orqali o'tkaziladi.

Ta'lim rivojlangan mamlakatlardagi 14 yoshdagi bolalarning bilim darajasini bir xil mezonda o'lchash imkonini beradi. PISA tadqiqotlarida O'zbekistonning ishtiroki mamlakatda ta'lim sifati nechog'lik darajada ekanini xalqaro miqyosda ko'rsatadi. Bu nima uchun muhim? Avvalo, ta'limdagi o'zgarishlarda to'g'ri yo'ldan ketyapmizmi, degan savolga javob topiladi. PISA tadqiqotlarida shunday savollar beriladiki, bu qaysidir bir faktga asoslangan bo'lmaydi. Bitta savolda bir nechta fanlar elementlari jamlangan va unda kimyo, fizika, biologiya ham bo'lishi mumkin. Test bolalarning mustaqil hayotga nechog'lik tayyorligini baholaydigan sinov.

O'zbekiston xalqaro baholash tizimi (PISA)ga kirish bo'yicha xohish bildirgani juda ham muhim. Chunki PISA ta'limni qanday qilib takomillashtirish mumkin bo'lgan barcha savollarga javob tizimi hisoblanadi. Bu, albatta, katta tayyorgarlik talab etadi. Juda ko'p mutaxassislar buning ustida ishlaydi. Lekin yakunda biz obe'ktiv ma'lumotni olish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Zamonaviy ta'lim tizimida ta'lim sifatini baholash milliy doiradan chiqib, xalqaro miqyosda taqqoslash va tahlil qilish bosqichiga ko'tarildi. Shu nuqtai nazardan xalqaro baholash dasturlari ta'lim tizimining holatini obyektiv baholash, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda ta'lim siyosatini takomillashtirishda muhim vosita sifatida qaraladi. Ushbu dasturlar orqali o'quvchilarning bilimlari emas, balki ularning bilimlardan foydalanish, muammolarni hal etish va hayotiy vaziyatlarga moslashish darajasi aniqlanadi.

Xalqaro baholash dasturlarining asosiy maqsadi ta'lim sifati to'g'risida ishonchli va taqqoslanadigan ma'lumotlar olishdan iborat. Ushbu dasturlar milliy baholash tizimlaridan farqli ravishda, turli davlatlar ta'lim tizimlarini yagona mezonlar asosida solishtirish imkonini beradi. Natijada ta'lim sifatining global tendensiyalari aniqlanadi va mamlakatlar o'z ta'lim tizimini xalqaro tajriba bilan qiyoslash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xalqaro baholash dasturlari orasida TIMSS alohida o'rin tutadi. Ushbu dastur matematika va tabiiy fanlar bo'yicha o'quvchilarning bilim darajasini baholashga qaratilgan.

TIMSS dasturi o'quvchilarning fanlar bo'yicha asosiy tushunchalarni qanchalik o'zlashtirganini va ularni amaliy masalalarda qo'llay olishini aniqlaydi.

Dastur natijalari fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi. TIMSS dasturining muhim jihatlaridan biri ta'lim mazmuni va o'qitish jarayonini tahlil qilish imkoniyatidir.

Ushbu dastur nafaqat o'quvchilar bilimini, balki o'quv dasturlari, darsliklar va o'qitish usullarining samaradorligini ham tahlil qiladi.

Natijada fanlarni o'qitishda qaysi yondashuvlar samaraliroq ekanligi aniqlanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki Xalqaro baxolash dasturlarida ishtirok etish va tahlil qilish milliy talim tizimini baxolash orqali, global talim bilan integratsiya qilish, talim sifatini oshirishga qaratilgan uzoq muddatli va tizimli qarorlar qabul qilish imkoniyati yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni.
3. Achilova Sunbula Asrorovna Ta'lim sifati va xalqaro baxolash tizimlari(PISA,TIMSS,PIRLS)ga pedagogik-psixologik yondashuv.YANGI O'ZBEKISTON TALABALARI AXBOROTNOMASI 2025-yil 3-jild,11-son